

2022



Toshkent tibbiyot  
akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

## Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

O'zbekiston  
Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

## **ABU RAYHON BERUNIYNING TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASINI O'RGANISH**

**Z. Ch. Kurbonova, N. F. Nuriddinova, G. B. Tairova**  
Toshkent tibbiyot akademiyasi

### **ANNOTATSIYA**

Abu Rayhon Beruniy ko'plab fanlarga oid mashhur asarlar muallifi. Abu Rayhon Beruniyning „Saydana“ asarida jigar kasalliklarida qon ketishni davolash to'g'risida ham ko'p ma'lumotlar keltirgan. Jigar kasalliklarida gemorragik sindromni davolash va oldini olishning optimal usullarining haddan tashqari murakkabligi, jarrohlik aralashuvlarning natijalarini o'rganish bu muammoni juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Abu Rayhon Beruniy, jigar, surunkali gepatit, jigar sirrozi, qon ketishi.

Abu Rayhon Beruniy Xorazmnинг buyuk allomasi, tarix, tibbiyot, farmakologiya, mineralogiya fanlarga oid mashhur asarlar muallifi. Abu Rayhon Beruniyning asosiy asarlari astronomiya, tibbiyot va matematikaga bag'ishlangan bo'lib, uning „Saydana“ asarida mingdan ortiq dorivor moddalar nomini 30 tilda yozib chiqqan. Shu jumladan olim jigar kasalliklarida qon ketishni davolash to'g'risida ham ko'p ma'lumotlar keltirgan.

Xozirgi davrda jigar kasalliklarining rivojlanishi patogenetik mexanizmlari oxirigacha o'rganilmagan [4]. V va C gepatit viruslari surunkali gepatit va jigar sirrozining eng keng tarqalgan etiologik omillaridan biridir [5]. Hozirda tibbiyotga medikamentoz gepatittushunchasi ham kiritilgan bo'lib, 180 dan ortiq gepatotoksik farmakologik preparatlar aniqlangan [2]. Jigar kasalliklari tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uni o'z vaqtida aniqlash ko'plab asoratlarning oldini olishga yordam beradi [6].

Surunkali diffuz jigar kasalliklari zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan hisoblanib, oshqozon-ichak kasalliklari orasida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Butun dunyo bo'yab surunkali gepatit va jigar sirrozi bilan kasallanish o'sib bormoqda. O'tgan o'n yillar davomida, jigar sirrozi bilan kasallanish barqaror yuqori bo'lib qolmoqda va ixtisoslashtirilgan shifoxonalarda surunkali diffuz jigar kasalliklari bilan kasallanganlar, bemorlar umumiyligi sonining 30% ini tashkil etadi.

Kasallanish oqibatlari har bir bemorning uzoq vaqt mehnatga layoqatsizligini, nogironlik va o'lim darajasini oshishiga olib keladi.

Jigar sirrozining klinik ko'rinishi turli xil, chunki ular organizmning deyarli barcha tizimlariga ta'sir qiladi. Kasallikning asosiy belgilari portal tomirlari tizimida gipertenziya va jigar – hujayra yetishmovchiligi mavjudlidir. Jigar sirrozida o'limning asosiy sabablari jigar komasi (40-60%) va oshqozon ichak tizimning yuqori qismlaridan qon ketishi (20-40%) hisoblanadi. Jigar saratoni, interkurent infektsiyalar va gepatorenal sindrom deyarli kam uchraydi. Ushbu patologiyani o'z vaqtida aniqlash bunday bemorlarning hayot davomiyligini sezilarli darajada oshirish va hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Gemostaz tizimining patogenezi, diagnostikasi va tuzatish masalalari tibbiyotning turli sohalaridagi mutaxassislarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Jigar gemostazni saqlashda muhim ahamiyatga ega, bu esa amaliyotda jigar patologiyasiga duch keladigan shifokorlar uchun juda muhim. Qon ivish omillari, antikoagulyant oqsillar, fibrinoliz tizimining tarkibiy qismlari va trombopositopoez stimulyatorlari gepatotsitlar tomonidan sintezlanadi, shuning uchun uning parenximasining diffuz o'zgarishlari qon ivishining murakkab buzilishiga olib keladi. Jigar qon ivishi jarayonida asosiy rol o'ynaydi, chunki jigar patologiyasi gemostazning barcha omillarini sintez qiladigan gepatotsitlarning funksional yetishmovchiliga olib keladi. Gepatotsitlarning zararlanishi surunkali gepatit yoki jigar sirrozining rivojlanishiga olib keladi, bu kasallikning og'irligi va davomiyligini belgilaydi. Ma'lumki, gepatotsitlarning faqat 10-15% koagulyatsion tizimning ishlashi uchun qon ivish omillarining normal darajasini ta'minlashi mumkin. Koagulyatsion va antikoaguluatsion tizimlarni baholash uchun gemostazning barcha yo'nalishlarini o'rganish kerak.

Jigar sirrozi ko'pincha gipersplenizm bilan birga keladi, bu ikkilamchi trombotsitopeniya va gemorragik sindromning asosiy sababi hisoblanadi. Shu bilan birga, jigar sirrozi bo'lgan bemorlarda fibrinoliz ingibitorlari darajasining kamayishi fibrinolizning kuchayishiga olib keladi va qon ketishining yana bitta omili bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtida jigar sirrozi bo'lgan bemorlarda trombozni oldini olish va davolash uchun maqbul algoritm ishlab chiqilmagan. Jigar sirrozi va o'tkir buyrak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda uzoq muddatli buyrak almashtirish terapiyasini o'tkazishda bir martalik antitrombin dozasini qo'llash, geparinning profilaktik dozalarini doimiy ravishda belgilashga muqobil bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar chop etildi.

Shu bilan birga, antikoagulyantlar terapiyadan foydalanish portal vena trombozi bo'lgan bemorlarda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Jigar sirrozi bo'lgan bemorlarda antikoagulyant terapiya portal gipertenziya oqibatlarini va varikoz tomirlari kengayishining oldini olish bilan birga amalga oshiriladi. Jigar sirrozi bo'lgan bemorlarda antikoagulyantlarni tayinlash, asosan, portal gipertenziya bilan bog'liq qon ketish xavfi ni keltirib chiqaradi [3]. Shuning uchun antikoagulyantlarni tayinlashda ushbu bemorda antikoagulyant terapiyaning mumkin bo'lgan asoratlarini rivojlanish xavfini hisobga olish kerak [1].

Virusli gepatit va jigar sirrozi bilan kurashish bo'yicha chora-tadbirlarga qaramay, kasallangan bemorlarni erta aniqlash, tashxis qo'yish, differentzial tashxis qo'yish, surunkali gepatit hamda jigar sirrozi va ularning asoratlari bilan og'igan bemorlarni davolashga qaratilgan choralarini takomillashtirish kerak. Shunday qilib, jigar sirrozi kasalliklarida gemorragik sindromni davolash va oldini olishning optimal usullarining haddan tashqari murakkabligi, jarrohlik aralashuvlarning natijalarini o'rganish bu muammoni juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

## REFERENCES

1. Воробьев Р.А. Диагностика и лечение патологии гемостаза. – М.: Ньюдиамед, 2011. – 410 с.
2. Сайдов А.Б., Сайфутдинова З.А., Каримов Х.Я. Лекарственно-индуцированный токсический гепатит: современные взгляды // Назарий ва клиник тиббиёт, 2021. – №3. – Б. 52-58ю
3. Jiburt E.B., Madzaev S.R., Klyueva E.A. Ostanovka krovotecheniya na fone antitromboticheskoy terapii // Vestnik slujby krovi Rossii. – 2013. – № 3. – S. 59–62.
4. Kurbonova Z.Ch., BabadjanovaSh.A. Violations of coagulative hemostasis in patients with liver cirrhosis of the viral etiology. European science review. 2018,7-8:122-125.
5. Kurbonova Z.Ch., BabadjanovaSh.A., Islamova Z.S., Musayeva N.B., Babadjanov A.S. Some features of hemorrhagic syndrome in chronic diffuse liver diseases. Indian Journal of Forensic Medicine and Toxicology. 2020;14(4), 7443-7448.
6. Kurbonova Z.Ch., BabadjanovaSh.A., Korkmaz S., Babadjanov A.S., Musayeva N.B. Platelet Pathology in Patients with Chronic Diffuse Liver Diseases with Viral Etiology. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020,5 (24):2402-10.

## CONTENTS MUNDARIJA

- 81.** Dustova, G. K. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING "SAYDANA" ASARINING XUSUSIYATLARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 313-314.
- 82.** Sayfutdinova, Z. A., & Kurbonova, Z. C. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING JIGAR KASALLIKLARINI DAVOLASHDAGI MASLAXATLARINING ZAMONAVIY TALQINI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 315-316.
- 83.** Kurbonova, Z. C., Nuriddinova, N. F., & Tairova, G. B. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASINI O'RGANISH. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 317-319.
- 84.** Tairova, G. B., Kurbonova, Z. C., & Nuriddinova, N. F. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING JIGAR KASALLIKLARI TO'G'RISIDAGI FIKRLARINI TADQIQ QILISH. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 320-322.
- 85.** Ne'matova, M., & Aslanova, M. D. (2022). ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARINING TIBBIYOTDAGI O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 323-326.
- 86.** Nishonov, A. A. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING TIBBIYOTGA QO'SHGAN HISSASI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 327-328.
- 87.** Rahmanov, T. O., & Muxammadiyeva, M. M. (2022). ABU RAYXON BERUNIYNING XOZIRGI DAVRGACHA TUTGAN O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 329-330.
- 88.** Sherqo'ziyeva, G. F., Boysariyeva, M., & O'rolova, O. (2022). BERUNIYNING TIBBIYOTDAGI ZAMONDOSHI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 331-334.
- 89.** Sobirjonov, A. Z. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING «SAYDANA» ASARINI FARATSEVTIKADA TUTGAN O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 335-339.
- 90.** Farhodjonov, O. U. (2022). XORAZMLIK BERUNIY VA TIBBIYOT. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 340-347.
- 91.** Xudaykulova, G. K., Abdurashitova, S. A., & Muyassarova, M. M. (2022). ABU RAYHON MUHAMMAD IBN AHMAD BERUNIY O'RTA ASRLARNING BUYUK QOMUSIY OLIMI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 348-350.